



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 142-146 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

INNOVASION FAOLIYATNING MOLIYAVIY TA'MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI



Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich,

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

xulugbek1984@gmail.com ORCID: 0000-0002-3589-373X

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga ta'sir etuvchi bilimlar iqtisodiyoti tizimi o'rganib chiqilgan. Mamlakatimizda bilimlar iqtisodiyotini shakllanishida respublikamizdagi shart-sharoitlar tahlil qilinib, xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sherikchiligi, bilimlar iqtisodiyoti, global tendensiya, innovatsiyalar, mintaqa, daromad, xarajat

Аннотация: В статье исследуется система экономики знаний, которая влияет на устойчивое экономическое развитие нашей страны. Проанализированы условия формирования экономики знаний в нашей стране и сделаны выводы.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, экономика знаний, глобальный тренд, инновации, регион, доход, стоимость

Abstract: This article examines the system of knowledge economy, which affects the sustainable economic development of our country. The conditions of the formation of the knowledge economy in our country have been analyzed and conclusions have been drawn.

Key words: public-private partnership, knowledge economy, global trend, innovation, region, income, cost

Kirish

Iqtisodiyot Bilimlar iqtisodiyoti (BI) xususiyatlariga ega bo'lganda, uning xususiyatlaridagi asosiy o'zgarishlar fanni sanoat manfaatlari va firmalarni rag'batlantirish sohasiga kiritish, shuningdek, hududlarning innovasion rivojlanishi uchun mas'uliyat darajasini oshirishdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatda kuchli fundamental ilmiy-tadqiqot sohasiga, samarali ta'lim tizimiga, ular bilan tadbirkorlar o'rtasidagi tizimli o'zaro hamkorlikka asoslangan bilimlarni shakllantirishning rivojlangan tizimi mavjud bo'lgandagina texnologik qoloqlikni bartaraf etish mumkin bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Bilimlar iqtisodiyotining asl ko'rinishi esa 20 asrning 40-60 yillarida institusionalizm iqtisodiy oqimini vujudga kelishi bilan boshlagan. Bu yo'nalishda qatnashchilarni alohida ko'rib chiqsak bo'ladi. Dj.K.Gelbreyt "Yangi industrial jamiyat" va D.Bell "Industrial jamiyatdan keyingi jamiyat" asarlarida postindustrial jamiyatning

dastlabki ko'rinishlariga ta'rif berganlar. Jumladan, J.K.Gelbreyt fikri bo'yicha, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti xatti-harakati murakkab texnikalarni ishlab chiqaruvchi yirik korporatsiyalar bilan aniqlanadi. Uning fikricha zamonaviy korporatsiyalarda real iqtisodiy hokimiyat kapital egalariga emas va hatto menejerlarga ham emas, balki ilm, fan va texnologik bilim egalariga tegishli bo'ladi. Texnostruktura vakillari ishlab chiqarish to'g'risida o'ziga xos professional bilimga va qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotlarga ega. Albatta, rasmiy jihatdan muhim qarorlar, qoidaga ko'ra, kompaniyaning yetakchi menejerlari – direktor va uning o'rinbosarlarining alohida huquqi hisoblanadi. Lekin barcha qarorlarni qabul qilish deyarli 100 foiz axborotlarga bog'liq. Axborotlar esa texnostruktura “nazorati” ostida bo'ladi. [2]

Rivojlangan mamlakatlar hukumatlari tomonidan innovasion rivojlanish muhimligini anglash ularning makroiqtisodiy siyosatida innovasion strategiyani amalga oshirishga olib keldi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ishlarida milliy iqtisodiyotni innovasion rivojlantirish masalasi atroflicha tadqiq etilgan. Iqtisodiyotdagi innovasion jarayonlarga oid ilmiy munozaralar Y. Shumpeter[3], M. Kondratiyev[4], M. Porter[5] va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Tahlil va natijalar

Globalashuvning global tendensiyalarini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining global innovasion jarayondagi o'rni haqidagi savolga javob berish uchun innovasion tendensiyalarning xalqaro qiyosiy tahlili alohida ahamiyatga ega. Innovasion salohiyat va texnologik tayyorgarlik milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining ajralmas tarkibiy qismidir. Jahon iqtisodiy forumining global raqobatbardoshlik bo'yicha hisobotiga ko'ra, “Innovatsiyalar” kichik indeksi bo'yicha O'zbekiston 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 85-o'ringan 83-o'ringa ko'tarildi. Bu esa 2013 yildan buyon 133- o'ringan ellik pog'onaga ko'tarilib, eng yaxshi 100 talikka kirdi. Ammo, o'rta daromad darajasi past bo'lganlar o'rtasida 10-o'rinni egallab turibdi[6] (1-jadval).

1-jadval

2024 yilda innovatsiyalar bo'yicha yuqori natijalarga erishgan davlatlar: daromadlar guruhi, mintaq va yillar bo'yicha innovatsiyalarning ustunligi

Iqtisodiyot	Daromadlar guruhi	Mintaqa	Innovatsiyalar ustida ishlagan yillar (jami)
Ukraina	Pastroq o'rta daromad	Yevropa	2012, 2014–2024 (12)
Tailand	Yuqori o'rta daromad	Janubi-Sharqiy Osiyo, Sharqiy Osiyo va Okeaniya	2011, 2014–2015, 2018–2024 (10)
Iordaniya	Pastroq o'rta daromad	Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyo	2011–2015, 2022–2024 (8)

Iqtisodiyot	Daromadlar guruhi	Mintaqa	Innovatsiyalar ustida ishlagan yillar (jami)
Filippin	Pastroq o'rtada daromad	Janubi-Sharqiy Osiyo, Sharqiy Osiyo va Okeaniya	2019, 2020–2024 (6)
Braziliya	Yuqori o'rtada daromad	Lotin Amerikasi va Karib dengizi	2021–2024 (4)
Indoneziya	Yuqori o'rtada daromad	Janubi-Sharqiy Osiyo, Sharqiy Osiyo va Okeaniya	2022–2024 (3)
Pokiston	Pastroq o'rtada daromad	Markaziy va Janubiy Osiyo	2022–2024 (3)
O'zbekiston	Pastroq o'rtada daromad	Markaziy va Janubiy Osiyo	2022–2024 (3)

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'rtacha daromad darajasi past bo'lgan davlatlar orasida Eron Islom Respublikasi (64-o'rin), Marokash (66-o'rin) va Pokiston (91-o'rin) samarali innovatorlar bo'lsa, Qozog'iston (78-o'rin), O'zbekiston (83-o'rin), Ozarbayjon (95-o'rin) va Qirg'iziston (99-o'rin) o'z ma'lumotlarini mahsulotga aylantirish bo'yicha ko'rsatkichlarini yaxshilanganligi bilan o'zining past daromadli davlatlar guruhlarida ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasidagi zaif texnologik tayyorgarlikning asosiy sabablari milliy iqtisodiyotni asosan oldingi texnologik yutuqlardan foydalanishi, ishlab chiqarish tarkibida oraliq iste'molning ulushini juda yuqoriligi, korxonalarining innovasion faolligini rivojlangan mamlakatlarga nisbatan pastligi, mulkiy huquqlarni himoya qilishning normativ-huquqiy vositalarining mukammal emasligidan iborat.


Bu, birinchi navbatda, rivojlanayotgan mamlakatlarning noto'g'ri o'ylangan innovasion siyosati bilan bog'liq bo'lib, bu katta moliyaviy resurslarni innovasion rivojlanishga emas, balki qarzlarni va ijtimoiy ehtiyojlarni to'lash, ularga xizmat ko'rsatishga yo'naltirganlik bilan izohlanadi. Jahon taraqqiyotining umumiy tendensiyalari mamlakatimizda ilmiy-texnikaviy va innovasion faollik darajasini real baholash bilan birga kuchli innovasion tizimni shakllantirishning global jarayonlaridan chetda qolmasligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarining innovasion faolligi rivojlangan davlatlar o'rtasida hatto minimal qiymatga ham yetib bormaydigan darajada bo'lib, uni innovasion rivojlanishning yetakchi davlatlari bilan solishtiradigan bo'lsak, bu farq taxminan 5 barobarga teng. O'zbekiston Respublikasida asosan past texnologiyali sanoat

va tuzilmalar asosida qurilgan iqtisodiyot modelini shakllantirish va mustahkamlash natijasida sanoat majmuasida bilim intensivligi past bo'lgan tarmoqlarning ustunlik tendensiyasi chuqurlashdi.

Innovation faol korxonalarining umumiy sonining qariyb 95 foizini qayta ishlash sanoati korxonalarini tashkil etdi, bu esa o'z mahsulotlarining xorijiy analoglarga nisbatan raqobatbardoshligini saqlab qolish zarurati tufayli qayta ishlash sanoati korxonalarini rivojlantirish bo'yicha jahon tendensiyalariga ya'ni, ishlab chiqarishda innovation ishlanmalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etishga mos keladi.

Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, innovation faoliyatni amalga oshirishdagi asosiy muammo - innovation xarajatlarning samarasiz tuzilishi bo'lib, 2010-2024 yillarda innovation korxonalar o'z xarajatlarining katta qismini mashinalar, asbob-uskunalar va dasturiy ta'minotni sotib olishga yo'naltirdi. 2010-2024 yillarda korxonalar va tashkilotlarning innovation xarajatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning grafigi egri chiziqdan iboratligini ko'rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2010-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi korxonalar va tashkilotlarning innovation xarajatlari (mlrd. so'm)

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanishi innovatsiya, yangi texnika va texnologiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etishga bog'liq bo'lib, bu insoniyat taraqqiyoti hamda nazariy-amaliy bilimlar bog'liqligi bilan amalga oshiriladi. Innovatsiyalarni alohida korxonalar va qolaversa butun iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishiga qay darajadagi ta'sirini chuqur o'rganish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shunga ko'ra, jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi korxonalar va tashkilotlarning innovation xarajatlari 2022 yilda eng yuqori qiymatga 19130,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2023 yilda 8514,1 mlrd. so'mga kamayib 10616,5 mlrd. so'mga, 2024 yilda dastlabki ma'lumotlarga asosan, 2023 yilga nisbatan 2839,6 mlrd. so'mga o'sib 13456,1 mlrd. so'mga yetdi. Bunday xarajatlar, nafaqat tadqiqotchilarning ish haqi va tegishli xarajatlarni, balki binolar va ularni amalga oshirish uchun maxsus jihozlar uchun kapital xarajatlarni ham o'z ichiga oladi.

Shuningdek, ushbu mablag'lar tashqi ilmiy-texnika ishlanmalarni olish va boshqa tashqi bilimlarni olish uchun ishlatilgan, bu ichki innovasion ishlanmalarni amalga oshirishga qaraganda ancha ko'p. Bu mahalliy biznes tomonidan fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlarini qabul qilinmayotganligi hamda yangi texnologiyalarni o'zlashtirish uchun sarflangan xarajatlar darajasidan pastligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, ilmiy-texnika ishlanmalariga o'z mablag'larini jalb qilish bo'yicha korxonalarini rag'batlantirishning noto'g'ri darajasiga e'tibor qaratish lozim. Ko'rsatilgan moliyalashtirish tendensiyalari bilan bog'liq holda, O'zbekiston Respublikasida innovasion sohani faollashtirishni rag'batlantirish maqsadida Davlat-xususiy sheriklikdan foydalanish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ilm-fan iqtisodiyotning real sektori tomonidan talabga ega emas va birgalikda moliyalashtirish imkoniyatiga ruxsat bermaydigan qoidalarga muvofiq moliyalashtiriladi. Kamdan-kam istisnolardan tashqari, fan uchun mablag' standart byudjet rejalariga muvofiq saflanadi va bunda tadqiqot natijalarini qonuniy ravishda tijoratlashtirish qiyin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 11.09.2023 yildagi PQ-300-son qarori, <https://lex.uz/ru/docs/6600390?ONDATE=24.11.2023>
2. Tashmatov Sh., Xasanxonova N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma. T.: IQTISODIYOT DUNYOSI", 2020.
3. Шумпетер Й. А. Теория экономического развития : Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры / Й. А. Шумпетер – М. : Прогресс, 1982. – 456 с.
4. Кондратьев Н. Д. Проблемы экономической динамики / Н. Д. Кондратьев. – М. : Экономика. – 1989. – 173 с.
5. Портер М. Э. Конкуренция / М. Э. Портер. – М. : Вильямс, 2002. – 495 с.
6. Global Innovation Index Database, WIPO, 2024. <https://www.wipo.int/web-publications/global-innovation-index-2024/en/gii-2024-results.html>
7. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"* –2013.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

